


Rang



Rangtasvirda rang asosiy ifoda vositalaridan biri bo'lib, u orqali rassom tasvirga kayfiyat, yorug'lik, chuqurlik va o'ziga xos xususiyat baxsh etadi. Rang bizning dunyomizni go'zal va yorqin qiladi.

Bugun biz ranglar olamiga sayohat qilamiz: ularning sir-asrorlari bilan tanishamiz va yangi rang tuslarini hosil qilishni o'rganamiz.


Asosiy ranglar: sariq, qizil va ko'k. Ular **asosiy ranglar** deb ataladi, chunki ularni boshqa ranglarni aralashtirish orqali hosil qilib bo'lmaydi.



sariq



qizil



ko'k

Hosila ranglarni esa asosiy ranglarni o'zaro aralashtirish orqali hosil qilish mumkin.



olovrang



yashil



binafsharang

Ranglar doirasi maxsus sxema bo'lib, unda barcha ranglar shunday joylashtirilganki, aralashtirilganda ular biridan biriga o'ta boshlaydi. Uning yordamida o'zaro uyg'un ranglar birikmasini tanlash, rasmda ma'lum bir kayfiyat yaratish va uning ifodaliligini oshirish mumkin.

Barcha ranglar – xuddi katta orkestr ishtirokchilari kabi o‘z o‘rniga ega. **Ranglar doirasidagi** barcha ranglar **issiq** va **sovuq** ranglarga bo‘linadi.



1. Sizningcha, **issiq ranglarni** ko‘proq nimalar bilan bog‘lash mumkin?
2. **Sovuq ranglarni-chi**, ularni nimalar bilan bog‘laysiz?

- Ranglar doirasida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan ranglar **kontrast (bir-biriga zid)** ranglar deyiladi. Ular bir-birini yanada kuchaytiradi.
- Yonma-yon joylashgan ranglar esa bir-biriga **yaqin (o‘xshash)** ranglar deyiladi.



asosiy



hosila



bir-biriga yaqin



bir-biriga zid



1. Qanday ranglar bir-biriga zid hisoblanadi?
2. Qanday ranglar bir-biriga yaqin ranglar deb ataladi?




Sher rasmini chizing: undagi oddiy yol o'rniga ranglar doirasi bo'lsin.

Rasm chizish bosqichlari:

1. **Doira** chizing va uni **6 qismga** bo'ling.
2. Doirani asosiy ranglar: **sariq**, **ko'k**, **qizil** bilan bo'yang. Keyin esa **olovrang**, **binafsharang**, **yashil** ranglarni hosil qiling. Mo'yqalam bilan ranglarga o'tishni ehtiyotkorlik bilan bajaring.
3. Bo'yoq quriguncha, alohida qog'ozga **sherning yuz qismini** chizing va uni qirqib oling.
4. Doira ostiga sherning **tanasi**, **dumi** va **oyoqlarini** chizing.
5. Sherning yuzini doira markaziga **yopishtiring**. **Fon** va **kichik detallar** qo'shing.

1



2



3



4



5



6

